


Ochilg'och bu gulshanda inson guli,
Ne inson guli, bog'i rizvon guli.



*ALISHER NAVOIY
VA ADABIY TA'SIR
MASALALARI:
BADIY IJOD,
KOMPARATIVISTIKA
VA RENESSANS*

*MUHIDDINOV MUSLIHIDDIN
QUTBIDDINOVICHNING*

80 yilligiga bag'ishlangan

xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya

SAMARQAND – 2025



**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**SHAROF RASHIDOV
NOMIDAGI
SAMARQAND
DAVLAT
UNIVERSITETI**



**ALISHER
NAVOIY**
XALQARO JAMOAT FONDI

**ALISHER NAVOIY
XALQARO JAMOAT
FONDI**

**ALISHER NAVOIY VA ADABIY TA’SIR MASALALARI:
BADIY IJOD, KOMPARATIVISTIKA VA RENESSANS**
mavzusidagi

MUHIDDINOV MUSLIHIDDIN QUTBIDDINOVICHNING

80 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi

TAKLIFNOMA VA DASTURI

SAMARQAND – 16-may, 2025-yil

Buyuk shoir va mutafakkir, xalqparvar davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning bebaho merosi el-yurtimiz ma'naviy hayoti va dunyo adabiyoti rivojida alohida muhim o'rin tutadi. Ul zotning muborak siymosi umrini Vatan va xalq saodati uchun baxsh etishni hayot maslagi deb biladigan fidoyi shaxslarni tarbiyalashda barcha davrlar uchun yuksak ideal namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Sh.M.Mirziyoyev

Hurmatli _____!

Sizni 2025-yil 16-may kuni soat 09:30da bo'lib o'tadigan Samarqand adabiyotshunoslik maktabining yirik vakili O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, filologiya fanlari doktori, professor Muslihiddin Muhiddinov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan tashkil qilingan "Alisher Navoiy va adabiy ta'sir masalalari: badiiy ijod, komparativistika va Renessans" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjumanga taklif etamiz.

Anjuman 2025-yil 16-may soat 09:30da Sharof Rashidov nomidagi SamDU Bosh binosi Faollar zalida bo'lib o'tadi.

Tashkiliy qo'mita

ZOOM linki:

<https://us06web.zoom.us/j/7235646571?pwd=k8WT4tMFzQ3XYe6PXtaaKcQHLoeRhc.1>

Identifikator: 723 564 6571

Kod: 12345



KONFERENSIYANING OCHILISHI

Yalpi majlis

2025- yil 16-may soat 09:30

SamDU Bosh binosi, katta majlislar zali

09 ³⁰ – 09 ³⁵	KIRISH SO‘ZI. Xalmuradov Rustam Ibragimovich , Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori.
09 ³⁵ – 09 ⁴⁰	Boboyev Adiz Muzafarovich – Samarqand viloyati hokimi.
09 ⁴⁰ – 09 ⁴⁵	G‘ulomov Qodir G‘afurovich - O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.
09 ⁴⁵ – 09 ⁵⁵	Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik.
09 ⁵⁵ – 10 ⁰⁵	Ziyodov Shavosil Yunusovich – Imom al-Buxoriy Xalqaro tadqiqot instituti direktori.
10 ⁰⁵ – 10 ¹⁵	Fatma Sema Barutcu Özönder – Anqara universiteti professori. Nevâyi’nin sesini Duymak...
10 ¹⁵ – 10 ²⁵	Abzalov Erkin Mexmanovich - M.V.Lomonosov nomli Moskva Davlat Universiteti Toshkent filiali professori.
10 ²⁵ – 10 ³⁵	Davlatov Olim Davlatovich – Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori.
10 ³⁵ – 11 ⁰⁰	Tanaffus (coffee break)

Moderator: f.f.d., prof. Eltazarov Jo‘liboy Donobayevich – Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti direktori

11 ⁰⁰ – 11 ¹⁰	Videorolik
11 ¹⁰ – 11 ²⁰	Mirzayev Ibodullo Kamolovich – SamDU, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, professor
11 ²⁰ – 11 ³⁰	Tuxliyev Boqijon – O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori.
11 ³⁰ – 11 ⁴⁰	Nurov Nurali Nurzod – B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori.
11 ⁴⁰ – 11 ⁵⁰	Akhlaq Akhan – Javoharlal Neru universiteti professori, Markaziy Osiyo tadqiqotlar instituti direktori
11 ⁵⁰ – 12 ⁰⁰	Omonov Baxtiyor – O‘zbekiston Milliy universiteti professori.
12 ⁰⁰ – 12 ¹⁰	Eshonqulov Husniddin Primovich – Buxoro davlat universiteti professori
12 ¹⁰ – 12 ³⁰	Muhokamalar

SHO‘BALAR
2025-yil 16-may soat 14:00 – 16:00
SamDU bosh binosi, 105-xona
1-SHO‘BA YIG‘ILISHI (2025-yil 16-may, 14:00-16:00)

**ALISHER NAVOIY VA RENESSANS: ALISHER NAVOIY IJODIDA
KOMIL INSON KONSEPSIYASI MISOLIDA**

Rais: f.f.d. Olimov F. (O‘zbekiston)

Moderator: prof. Sulaymonov I. (O‘zbekiston)

Bilge Özkan. Ali Şîr Nevâî’nin kültürel misyonu ve dünya edebiyatındaki yansimalar

Omonov Baxtiyor. Alisher Navoiy Fenomeni haqida qaydlar

Eshonqulov Husniddin. Xamsalarda ifodalangan Komil Inson tushunchasi ustoz Muslihiddin Muhiddinov talqinida

Hayitov Shavkat. Komil savdogar timsoli

Tursunova Mahkamoy. Navoiyning onasi

Nosirov Is’hoqxon. “Maqsadimiz—Komil insonni tarbiyalash”

Olimov Farruxbek. Navoiy zamondoshlari

Hayitov Shavkat, Barotova Xurshida. Komil hukmdor orzusi

Qorayev Sherxon. Alisher Navoiy asarlarida Mavlaviylar Samo‘ yig‘inlarining yoritilishi

Xoliqulova Gulsanam. Miriy dostonlarida komil inson tasviri

Xasanova Mashhura. Jahon foniydurur, Ey Xoja, Zinhor

Ishanxanova Iroda. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasidagi konferensiya haqida

Razzoqov Alisher. Arastu – Komil inson obrazi sifatida

Mirzaaxmedova Maxliyo. Alisher Navoiy asarlarida ma’rifiy shaxs takomi...

Nasirdinova Yorkinoy. “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi...”: Navoiy obrazi Mark Toutant talqinida

Buriyeva Firuza. Abduvali Qutbiddin she’riyatida tasavvufiy ramziylik va so‘fiyona ohanglar

Raximov Sherbek. Alisher Navoiy asarlarida ma’naviy kamolot va uning ahamiyati...

Berdiyeva S., Do‘stmirzayeva F. Alisher Navoiy ijodida komil inson konsepsiyasi...



Maxsumov Mahmud. Navoiy ijodida nafs bilan kurash mavzusi:

Tarixiy dalillar va badiiy tahlil

Maxmudov A'loxon. Alisher Navoiy ijodida Xalifalar obrazining talqini...

Usmonova Iroda. Alisher Navoiyning "Farhod Va Shirin" dostoni Naqshbandiya tariqati masalalari yoritilgan asar sifatida

Egamberdiyeva Madina. Alisher Navoiy ijodida musiqa va she'riyatning Muqaddas uyg'unligi

Qalandarova Madina. O'rta asrlarda Kitobat san'ati: Temuriylar davriga oid tarixiy asarlar tahlili

2-SHO'BA YIG'ILISHI (2025-yil 17-may, 09:00-10:30)

**ALISHER NAVOIY IJODI: ADABIY TA'SIR VA POETIKA
MASALALARI**

Rais: f.f.d. Sharipova M. (Tojikiston)

Moderator: PhD. Toshniyozova D. (O'zbekiston)

Sultonmurod Olim. Murakkablik zamiridagi asl maqsad (bir g'azal sharhi)

Ochilov Ergash. Alisher Navoiy va Riyoziy Samarqandiy

Шарипова Мўътабар. Влияние «Чихил хадис»-а Джами на «Арбаин хадиса» Алишер Навои

Asadov Maqsud. Navoiy qit'alari: obraz, ma'no va tasvirdagi yangilanishlar

Yusupova Dilnavoz. Samarqand va ikki buyuk shoir

Sulaymonov Isroil. Alisher Navoiy ijodiga izdoshlik va ijodiy o'ziga xoslik masalasi

Hamroyeva Orzigul. Navoiy qofiyasining taqti' imkoniyatlari

G'afforova Ziyoda. Navoiyning hamd va na't qit'alari poetikasi

Asrorov Akbarxon. Alisher Navoiy ijodida Husayn Boyqaro shaxsiyati

Muxitdinova Badea. Qutbiy ijodida Navoiy an'analari

Muhammadiyev Ahadjon, Maxsumov Maqsud, Maxmudov A'loxon. Tasavvufiy talqin: nafsning badiiy obrazi Navoiy va Muhyi she'riyatida



Muxitdinova Nazmiya. Muhammad G‘oziy ijodida Alisher Navoiy uslubiga izdoshlik ko‘rinishlari

Toshniyozova Dilfuza. Sayidmuhammad Xalifa Ibni Davlat ijodida Alisher Navoiy an‘analari

Ismailov Is‘haqjon. Alisher Navoiy ijodining Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari yaratilishidagi o‘rni

Eshniyazova Ayimxan. Adabiyotshunoslik ilmida badiiy talqin muammosi

Aziz Rajabiy, Xusainov Ismoil. Alisher Navoiy ijodi va maqom san‘ati

Qarshiyev Komil. Alisher Navoiy va Jamol Kamol ijodida adabiy ta‘sir masalasi

Shomurodova Sitara. Devonchilik an‘anasida Alisher Navoiy ilgari surgan talablar

Rahmonova Zarina. Alisher Navoiy ga‘zallarida poetik sintaksis – anjambeman hodisasi

Jo‘rayeva Husnigul. Husayn Boyqaro siymosi Alisher Navoiy talqinida

Mavlonov Ahmadjon. “Saddi Iskandariy” dostonida tibbiyotga oid terminlar tahlili

Jumanov Bektosh. Sobir Sayqali ijodida Alisher Navoiy an‘analari

Yakubova Safiya. Alisher Navoiy va Ismoilxon Faqiriy ijodida badiiy mushtaraklik

Meyliyeva Nasiba. Alisher Navoiy poetikasi: adabiy tasvir vositalari va ularning ilmiy tahlili

Quljanova To‘lg‘anoy. Abduvali Qutbiddin she‘riyatida navoiyona ohanglar

Xalilova Nigora. Alisher Navoiyning “Xazoyin Ul-Maoniy” kulliyotidagi g‘azallarda begona baytlar poetikasi

Yangiboyev Shavkat. Alisher Navoiyning tahrir ishlari

Xaydarova Dilorom. Ismoil Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodiga munosabati

Nazarova Xilola. Nodim Namangoniy satirik hajviyotida Navoiy ijodining ta‘sir ko‘lami

Abduraxmonov Dostonbek. Oybek asarlarida Navoiy obrazining yoritilishi

Narziyeva Saodat. Muxammaslardagi adabiy ta‘sir va o‘ziga xosliklar



3-SHO'BA YIG'ILISHI (2025-yil 17-may, 10:30-11:30)

**SHARQ MASNAVIYILIGI TARIXI VA TARAQQIYOTI:
“XAMSA”LARNING KOMPARATIVISTIK TADQIQI**

Rais: prof. Qobilov U. (O'zbekiston)

Moderator: dots. Toxirov S. (O'zbekiston)

Mirzayev Ibodullo. Qiyosiy adabiyotshunoslik ilmi va takomilida professor M.Muhiddinovning o'rni

Jabborov Nurboy. “Hayrat ul-abror” talqiniga doir yangi mulohazalar

Qobilov Usmon, Sanaqulov Ulug'bek. Alisher Navoiy lirikasida Layli obrazi badiiy talqini...

Tohirov Sobirjon. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy: adabiy hamkorlik

Ruzmanova Roxila. Nizâmî Gencevî ve Ali Şir Nevâî

Sharipova Nigora. “Xamsa” ilk dostonlarida sujet va til munosabati

Dedakhanova Muazzam. “Xamsa” da jur'atli ayollar talqini

Muminova D. Alisher Navoiy ijodida “noma” janriga bo'lgan munosabat

Xoshimova Mohigul. Alisher Navoiy ijodining XIX-XX asr dostonchiligiga ta'siri

Sunatillayeva E'zoza. Alisher Navoiy ijodini o'rganish, rivojlantirish va jahonda keng targ'ib etish

Jovliyeva Yulduz. Alisher Navoiyning Lison ut-tayr” dostonida Istig'no vodiysi va u bilan bog'liq hikoyat tahlili

Vaxabova O'g'ilxon, Yo'ldoshboyeva Durdona. “Layli va Majnun” dostonida ruhiyat murakkabliklarining mohirona aks ettirilishi, o'zlikni anglash masalalari

Toshpulatova Marjona. Badiiy tahlil darslarini usul va texnologiya asosida tashkil etish



4-SHO'BA YIG'ILISHI (2025-yil 17-may, 11:30-12:30)

ALISHER NAVOIY NASRIY ASARLARINING UMUMINSONIY VA UMUMBASHARIY AHAMIYATI

Rais: f.f.d. Ismoilov I. (O'zbekiston)

Moderator: prof. N.Muxitdinova (O'zbekiston)

Abdullayeva Marg'uba. "Tarixi Anbiyo va Hukamo"da hikmat janri xususiyatlari
Ismoilov Ilyos. Munaqqash tasvir

Aslanova Hafiza. Alisher Navoiy asarlarida mavlono Gadoiy ijodiga munosabat

Berdiyeva Lobar. Alisher Navoiy merosida umuminsoniy tarbiya masalalarining talqin etilishi

Ortiqova Mavluda. "Holoti Pahlavon Muhammad" risolasida valoyat Inkishofi

Sa'dullayev Aziz. Alisher Navoiy nasriy asarlarida tarbiya va ta'limning psixologik jihatlari

Saydullayeva Dilrabo. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ijodkor so'fiylar zikri

5-SHO'BA YIG'ILISHI (2025-yil 17-may, 12:30-13:30)

ADABIY MATNSHUNOSLIK: NASHR, TARJIMA, ILMIY TAHLIL VA TALQIN

Rais: prof. Bekova N. (O'zbekiston)

Moderator: prof. B.Muxitdinova (O'zbekiston)

Axmedova Shoir. Alisher Navoiy obrazini yaratish yo'lidagi izlanishlar

Bekova Nazora. "Devoni Foni": tadqiq, talqin, nashr va tarjima

Sulaymonov Mo'minjon. Hofiz Xorazmiy lirikasida oshiq obrazi

Ozoda Tojiboyeva. "Favoyid ul-Kibar"ning Turkiya nashri xususida

Hazratqulova Elmira. Mariya Sabteln – Hirot adabiy muhiti manbalarining tadqiqotchisi

Vaxabova O'g'ilxon, Sayfulloh Kozimov. Alisher Navoiy ijodida emotsional intellekt va ijtimoiy ong masalalari

Sulaymonova Hulkar. "Rasailu-L-Xavarazmiy" asarining Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari xususida



Sabriyev Alisher. Alisher Navoiy asarlarini o'rgatishdagi mavjud muammolar va ularga zamonaviy yechim

G'oyibboyeva E'tiborxon. Navoiy hikmatlarining nashrlari tarixidan

Abruyeva Madina. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida olimlar timsoli: Qiyosiy tahlil

6-SHO'BA YIG'ILISHI (2025-yil 17-may, 13:30-14:30)

ADABIY JARAYON VA ADABIY AN'ANALAR

Rais: f.f.d. Davronova M. (O'zbekiston)

Moderator: dots. Hasanova M. (O'zbekiston)

Davronova Maxfuza. Xurshid Do'stmuhammad qissalarida portret va peyzajning psixologik vazifasi

Murodov G'ayrat. Navoiy obrazining yangicha talqini

Ernazarova Gulbahor. Abduvali Qutbiddin she'riyatida xalq og'zaki ijodidagi obraz va motivlar ifodasi

Tugalov Toshpo'lat. Munaqqid siyrati va adabiy meros mohiyati

Fayzullayev Zavqiyjon. Lirikada qofiya va radif masalasi (Asriy Tabriziy ijodi misolida)

Sidiqova Shahnoza. Ahmad A'zam hikoyalarida badiiy syujet muammosi

Hasanov Suhrob. Hozirgi o'zbek nasrida xarakter tabiati

7-SHO'BA YIG'ILISHI (2025-yil 17-may, 15:30-16:30)

ALISHER NAVOIY IJODINING JAHONDA O'RGANILISHI

Rais: prof. Hamroeva H. (O'zbekiston)

Moderator: PhD. Rahmonova Z. (O'zbekiston)

Аскарый Мадраимов А. Алишер Навои в трудах академика В.В.Бартольда
Hamroeva Hulkar, Tojiev Hamidulla. Mir Alisher Navoiy Asarlarining jahoniy sehri

Isomiddinov Yo'ldosh. Alisher Navoiy ijodining jahon miqyosida o'rganilishi tarixi



Хатамов Умид. Алишер Навои: Гений, чьи труды звучат сквозь века
Рустамова Дилафруз. Изучение творчества Алишера Навои в мире
Кодиркулова Ситора. Взгляд на повест «Сад жизни» Лидии Бат
Djurayev Mabruk. Alisher Foniý – Navoiyning forsiy ijodi doctor Sug‘rabonu Shig‘ofta tadqiqotlarida
Usmonova Ozodaxon. Navoiy ijodining jahon adabiyotshunosligida o‘rganilishi
Sayraxmatova Oqila. Alisher Navoiy ijodining jahonda o‘rganilishi

8-SHO‘BA YIG‘ILISHI (2025-yil 17-may, 16:30-17:30)

**NAVOIY IJODI: TIL, TARJIMASHUNOSLIK VA O‘QITISH
MASALALARI**

Rais: prof. Abdiyev M. (O‘zbekiston)

Moderator: Phd. Muminova D. (O‘zbekiston)

Abdiyev Murodqosim, Tamiqayeva D. Alisher Navoiyning “Layli Va Majnun” dostonida qo‘llanilgan izofa shaklidagi iboralar xususida

Farhad Rahimi. Feraği sözlüğünün yanlışları üzerine

Jamolitdinova Dilnoza , Akbarova Munira. Tilshunoslikda g‘ayriodatiy birikmalar muammosi

Usmanova Maxfuza. Alisher Navoiy asarlari tilida madaniy ekin nomlarining semantik-uslubiy xususiyatlari

Болдырева Алёна. Воспитание духовности и нравственности дошкольников через знакомство с творчеством Алишера Навои

Xusanova Maksuda. Alisher Navoiy asarlarida dignitonimlarning qo‘llanilishi

Boboqulov Ismoil. Alisher Navoiy asarlarida so‘z yasovchi affikslarning qo‘llanilishiga doir

Nasirdinova Yorkinoy. Muhokamatul Lug‘atayn: fransuz sharqshunosligida ilk tadqiqotlar va zamonaviy yondashuv

Vafoyeva Muxayyo. Alisher Navoiyning “Meni men istagan” g‘azalidagi iboralar tahlili





Muhiddinov Muslihiddin Qutbiddinovich – filologiya fanlari doktori, professor, navoiyshunos olim. 1945-yilda Samarqand viloyati Urgut tumanida ziyoli oilasida tavallud topgan. Muslihiddin Muhiddinov o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha yetuk mutaxassis, Samarqand adabiyotshunoslik maktabining faol davomchilaridan biri, bu sohada amalga oshirgan ishlari bilan ilm ahli nazariga tushgan olim.

M.Q.Muhiddinov 1972-yilda “O'zbek klassik adabiyotida “Bahrom va Dilorom” hamda “Bahrom va Gulandom” siklidagi dostonlar (“O'zbek klassik adabiyotida “Bahrom Go'r” syujetining evolyutsiyasi”) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor G'ulom Karimov rahbarligida, “Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson konsepsiyasi (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini esa 1995-yilda akademik Botirxon Valixo'jayev ilmiy maslahatchiligida himoya qilgan.

M.Q.Muhiddinov o'z mehnat faoliyatini Samarqand davlat pedagogika institutida laborant lavozimidan boshlab, mazkur institutda 1992-yilgacha o'qituvchi, dotsent, professor vazifasini bajaruvchi, o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha prorektor kabi vazifalarni bajardi. 1992-1997-yillarda SamDU o'zbek adabiyoti tarixi kafedrası professori, “Samarqand universiteti” gazetasi muharriri, SamDU qoshidagi nomzodlik dissertatsiyalari himoya etiladigan ixtisoslashgan kengash ilmiy kotibi, ilmiy kengash raisi, 1998-yildan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha SamDU birinchi prorektori lavozimida ishlagan. 2011-yildan SamDU filologiya fakultetining o'zbek adabiyoti tarixi kafedrası professori lavozimida faoliyat yuritmoqda.

M.Q.Muhiddinov o'z tadqiqotlarida komil inson g'oyasining mumtoz adabiyotdagi talqinlariga katta e'tibor berdi. Chunki oliyjanoblik, saxovat, shijoat, yaratuvchanlik va bunyodkorlikka asoslangan – komil inson g'oyasi istiqloлга erishgan mamlakatimizning moddiy-ma'naviy taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida o'rganilishi dolzarb masalaga aylandi. Olimning ilmiy faoliyati davomida 16 ta monografiya, jumladan, 5 tasi xorijda, 10 ta darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 400 dan ortiq ilmiy-nazariy maqolalari e'lon qilingan.

Uning bevosita rahbarligi ostida nomzodlik va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) 12 ta, 5 ta filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalari himoya qilingan. 30 ga yaqin magistrlik va o'nlab bakalavrlk ishlari tayyorlangan.

M.Q.Muhiddinov davlat fan-texnika qo'mitasining “Sharq mumtoz adabiyotida komil inson konsepsiyasi” (2001–2006), “Qo'lyozma manbalarning milliy-ma'naviy va adabiy meros targ'ibotidagi ahamiyati” (2007–2011), “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi” (2017–2020) mavzularidagi fundamental grantlar sohibi bo'lgan. Grantlar asosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida 10 dan ziyod yaqin kitoblar, Respublika va Xorijiy nashrlarda 80 ga yaqin ilmiy maqolalar va 1 ta maqolalar to'plami chop etildi. Mazkur loyihalar doirasida 20 dan ortiq (PhD), (DSc) dissertatsiyalari himoya qilindi. Bugungi kunda ham “Temuriylar davrida yaratilgan “Xamsa”larning ilmiy va ommabop nashrlari” (2025–2027) mavzusidagi amaliy loyiha rahbari sifatida adabiyotshunoslik, navoiyshunoslikka doir dolzarb tadqiqotlarni tatbiq etib kelmoqda.

Shuningdek, u “O'zbekiston Mustaqilligining 15, 20, 25 va 30 yilligi”, “O'zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishonlari bilan taqdirlangan. 2015-yil yakunlari bo'yicha Samarqand viloyatida o'tkazilgan ikkinchi an'anaviy “Samarqand iftixorlari” tanlovining “Viloyatimiz taraqqiyotiga qo'shgan samarali hissi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faol ishtiroki uchun” nominatsiyasi bo'yicha viloyat hokimining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O'zbekiston Mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni va 2018-yilda 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O'zbekiston gerbi aks etgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oltin qo'l soati bilan taqdirlandi. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O'zbekiston Mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan “El-yurt hurmati” ordeni, 2022-yilda “Ma'naviyat fidoiysi” ko'krak nishoni sohibi bo'ldi.

M.Q.Muhiddinov o'z ilmiy-pedagogik faoliyatida ma'naviyatimizni yuksaltirishga, ajdodlarimizning boy adabiy merosini yoshlarga yetkazishda, ularni vatanimizning sodiq, idrokli, iste'dodli farzandlari qilib tarbiyalashga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda

